

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo'l yozma huquqida
UO'K: 657.6:364.35-624(575.1)

NURMANOV DIN-AXMED TILEUBAYEVICH

**PENSIYA JAMG'ARMALARIDA XARAJATLAR HISOBI VA DAVLAT
AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH¹**

08.00.08 – “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit”

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari doktori,
prof. B.A. Xasanov**

Toshkent shahri – 2024-yil

¹ “OAK Byulleteni”ning 2023-yil 2-sonida B2023.2.PhD/Iqt3039 raqam bilan ro'yxatga olingan va e'lon qilingan.

MUNDARIJA

	Kirish	3
I BOB	BYUDJETDAN TASHQARI PENSIYA JAMG‘ARMALARIDA XARAJATLAR HISOBI VA DAVLAT AUDITINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	13
1.1-§.	O‘zbekistonda byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armalari faoliyatining hozirgi holati va rivojlantirish istiqbollari.....	13
1.2-§.	Pensiya jamg‘armalarida xarajatlar hisobini tashkil etish va yuritishning zamonaviy usullari	38
1.3-§.	Davlat moliyaviy nazorati tizimida auditni tatbiq etishning me’yoriy-uslubiy asoslari	45
	Birinchi bob buyicha xulosa.....	48
II BOB	BYUDJETDAN TASHQARI PENSIYA JAMG‘ARMALARIDA XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	50
2.1-§.	Pensiya jamg‘armalarida xarajatlar hisobining axborot-tahliliy ta’mintonini tashkiliy jihatlari	50
2.2-§.	Pensiya tayinlash va to‘lash muomalalarining analistik va sintetik hisobini takomillashtirish	55
2.3-§.	Pensiya jamg‘armalarida xarajatlar bo‘yicha hisobot tuzish va uni raqamlashtirish masalalari	67
	Ikkinci bob buyicha xulosa.....	78
	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA PENSIYA	
III BOB	JAMG‘ARMALARIDA XARAJATLARNING DAVLAT AUDITINI JORIY ETISH MASALALARI	80
3.1-§.	Pensiya jamg‘armalarida auditorlik faoliyati standartlari va dasturlarini transformatsiya qilishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	80
3.2-§.	Pensiya jamg‘armalarida byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish auditini takomillashtirish	85
3.3-§.	Xarajatlar auditи jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish yo‘llari	94
	Uchinchi bob buyicha xulosa.....	99
	XULOSA	101
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	103
	ILOVALAR	114

Kirish (falsaфа doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliги va zarurati. Jahon tajribasida pensiya ta'minoti tizimining barqarorligi mehnat, bandlik va keksa yoshdagи aholining ijtimoiy himoya etish, ularning moddiy ta'minot bilan ta'minlash va turmush darajasini oshirishni nazarda tutadi. Jumladan, Standart&Poors agentligi aholining qarishi to'g'risidagi hisobotida pensiyalar va sog'liqni saqlashga ajratilayotgan xarajatlar borasidagi quyidagi salbiy bashoratlarni e'lon qilib kelmoqda: "2050-yilga borib pensiyalarga ajratilayotgan xarajatlar rivojlangan mamlakatlarda YAIMga nisbatan o'rtacha 3,0 foizni, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 2,2 foizni tashkil etishi prognoz qilingan"²

Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishdagi amaliy ishlarning huquqiy asosini tashkil etuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish va bir-birini takrorlovchi normalarni bartaraf etish zarurati tug'ilmoqda. Mazkur islohotlarning asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni hisoblanadi³.

Milliy qonunchilik bazasining tizimlilagini ta'minlash, undagi ortiqcha va o'z huquqiy ahamiyatini yo'qotgan normativ-huquqiy hujjatlarni bekor qilish, sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini yanada keng joriy etish orqali davlat xizmatlarini ko'rsatish sifati yangi bosqichlarga olib chiqilmoqda⁴.

Respublikamizda 2023-yil 1-mart holatiga pensiya jamg'armasi tizimida pensiya oluvchilarning turlari bo'yicha umumiy soni 3 793 418 kishini va bir oyda talab qilinadigan mablag' miqdori 4 056 953,7 mln. so'mni tashkil etgan. Shundan

² Standart&Poors, Global Aging, 2021.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 19-sentyabrdagi "Vazirlar Mahkamasining "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2022-yil 13-oktyabrdagi 592-son qaroriga fuqarolarning pensiya ta'minotiga oid milliy qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish, sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini yanada keng joriy etishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, hukumatning ayrim qarorlarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi 481-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/6613424>.

yoshga doir pensiya oluvchilar soni 3 143 506 kishi va bir oyda talab qilinadigan mablag‘ miqdori 3 396 835,9 mln.so‘m, nogironlik pensiya oluvchilar soni 421 731 kishi va bir oyda talab qilinadigan mablag‘ miqdori 450 725 mln. so‘m, boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi oluvchilar soni 228 181 kishi va bir oyda talab qilinadigan mablag‘ miqdori 209 392,9 mln. so‘m ekanligi kuzatiladi⁵.

O‘zbekiston Respublikasi 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirish va moliyalashtirishning yangi tartibini joriy etish to‘g‘risida” 2017-yil 18-dekabrdagi PQ-3437-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 19-sentyabrdagi PQ-3946-sonli qarori, 1999-yil 3-sentyabrdagi 414-son “Byudjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minalash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertasya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Yuqoridagi holatlar byudjet tashkilotlarida smeta xarajatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish bo‘yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini taqozo etadi va tanlangan mavzuning dolzarbligini ifodalaydi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishining ITD-2 - «Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining rasmiy sayti. <https://pfru.uz/>).